
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

«QO'RIQLASH FAOLIYATI TO'G'RISIDA»GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI QABUL QILINISHI
MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISHLAR
KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022 yil 22 noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2023 yil 28 oktyabrda ma'qullangan

Mamlakatimizda qo'riqlash faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini, jismoniy va yuridik shaxslarga qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida «Qo'riqlash faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) qabul qilinib, unda qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish asoslari hamda qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi sub'ektlarning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yildi.

Shu bilan birga huquqni qo'llash amaliyotida qo'riqlash faoliyati sohasiga doir ayrim tushunchalar turlicha talqin etilishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish zaruriyati mavjud.

Mazkur Qonun bilan «[Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida](#)»gi va «[O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida](#)»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) ayrim normalarini «Qo'riqlash faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartishlar kiritilmoqda.

Ushbu Qonun qo'riqlash faoliyati sohasidagi tushunchalarning aniq va bir xil qo'llanilishiga xizmat qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi 938-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, № 9, 338-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, № 12, 269-modda; 1997 yil, № 4-5, 126-modda; 1998 yil, № 9, 181-modda; 1999 yil, № 5, 112-modda; 2001 yil, № 5, 89-modda; 2002 yil, № 4-5, 74-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005 yil, № 5, 152-modda; 2007 yil, № 12, 590, 608-moddalar; 2008 yil, № 12, 640-modda; 2010 yil, № 5, 178-modda, № 9, 334-modda, № 12, 472-modda; 2012 yil, № 1, 4-modda; 2013 yil, № 10, 263-modda; 2014 yil, № 12, 341-modda; 2016 yil, № 4, 125-modda, № 12, 383, 384-moddalar; 2018 yil, № 1, 1-modda, № 10, 676-modda, № 12, 783-modda; 2019 yil, № 5, 265-modda, № 8, 469-modda, № 9, 592-modda, № 11, 792-modda, № 12, 880-modda; 2020 yil, № 11, 652-modda; 2021 yil, 4-songa ilova, № 10, 973-modda; 2022 yil, № 2, 79-modda, № 5, 464-modda, № 10, 979, 982-moddalar) 37-moddasi birinchi qismi «v» bandining o'zbekcha [matnidagi](#) «soqchilikdagi» degan so'z «qo'riqlashdagi» degan so'z bilan almashtirilsin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksiga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, № 3, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996 yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997 yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998 yil, № 3, 38-modda,

№ 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999 yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000 yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001 yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002 yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003 yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004 yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005 yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005 yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006 yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007 yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008 yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009 yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010 yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011 yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012 yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013 yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014 yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015 yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016 yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017 yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018 yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019 yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020 yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021 yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar, № 11, 1066-modda; 2022 yil, № 1, 1, 2-moddalar, № 2, 80, 81-moddalar, № 3, 215, 216-moddalar, № 4, 337-modda, № 5, 464, 465, 466, 467-moddalar, № 8, 787-modda, № 10, 981, 984-moddalar) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) [250-modda](#):

uchinchi qismining [to'rtinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasi boshlig'i va uning o'rinbosari, yong'inning oldini olish bo'yicha otryad (komanda, o't o'chirish poyezdi) boshlig'i va uning o'rinbosari, katta yo'riqchi va yo'riqchi, komandaning, o't o'chirish poyezdi komandasining, harbiylashtirilgan qo'riqlash komandasining (qorovul) boshlig'i»;

to'rtinchi qismining o'zbekcha [matnidagi](#) «soqchilikning bo'linmasi» degan so'zlar «qo'riqlash bo'linmasining» degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) 252-moddaning [ikkinchi qismidagi](#) «harbiylashtirilgan idoraviy soqchiligining» degan so'zlar «idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining» degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) 284-moddaning [to'rtinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Yuridik shaxslarning qo'riqlanadigan ob'ektlariga, boshqa mol-mulkiga tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda huquqbuzar O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlari yoki harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasi ishchilari va xizmatchilari tomonidan huquqbuzarlikka barham berish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash va huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organiga, harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining xizmat

binosiga yoki ichki ishlar organlariga ushlab keltirilishi mumkin»;

4) 287-moddaning [3-bandidagi](#) «harbiy soqchilikning» degan soʻzlar «harbiylashtirilgan qoʻriqlash boʻlinmasining» degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

5) [289-moddaning](#):

[birinchi qismidagi](#) «harbiy soqchilik» degan soʻzlar «harbiylashtirilgan qoʻriqlash boʻlinmalarining» degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

[uchinchi qismidagi](#) «harbiy soqchilik» degan soʻzlar «harbiylashtirilgan qoʻriqlash boʻlinmalarining» degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

6) 291-modda birinchi qismining [«j» bandidagi](#) «harbiylashtirilgan soqchilikning» degan soʻzlar «harbiylashtirilgan qoʻriqlash boʻlinmalarining» degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

3-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrda qabul qilingan «Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi toʻgʻrisida»gi OʻRQ-647-sonli Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020 yil, № 11, 653-modda; 2022 yil, № 5, 464-modda, № 6, 570-modda) 28-moddasining [ikkinchi qismidagi](#) «soqchilik boʻlinmalari» degan soʻzlar «qoʻriqlash boʻlinmalari ishchilari va» degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

4-modda. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi oʻrtasida tushuntirilishini taʼminlasin.

5-modda. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid boʻlgan oʻz normativ-huquqiy hujjatlarini qayta koʻrib chiqishlari va bekor qilishlarini taʼminlasin.

6-modda. Ushbu Qonun rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

O'RQ-881-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023 y., 03/23/881/0906-son)

2023-12-22 16:19:52